

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

Fizika, matematika va axborot texnologiyalari kafedrası
—Informatika va information texnologiyalar|| fanidan
“Dori-Darmon” aktsiyadorlik kompaniyasi
mavzusi bo'yicha

R E F E R A T

Bajardi : Sanoat farmatsiyasi
yo'nalishi 3/2-guruh talabasi M.Shuxratova
Qabul qildi: O'qituvchi. A.Baydullayev

Toshkent - 2015 y

“Dori-Darmon” aktsiyadorlik kompaniyasi

Hozirgi kunda “Dori-Darmon” aktsiyadorlik kompaniyasi, O‘zbekiston farmatsevtika bozorida yetakchi o‘rinni qat’iy egallab turgan holda, 90 yil davomida respublika aholisi va davolash muassasalarini sifatli farmatsevtika mahsulotlarining keng assortimenti bilan ta’minlab, tez sur’atlarda rivojlanayotgan ulgurji-chakana korxona hisoblanadi.

Kompaniyada 8 ta aktsiyadorlik jamiyati, 10 ta shu’ba korxona faoliyat ko’rsatadi, ularning tarkibiga 10 ta ulgurji omborxona, 15 ta nazorat-tahliliy laboratoriya, 1000 dan ortiq dorixonalar, shu jumladan respublikaning barcha mintaqalarida qishloq shifokorlik punktlari qoshidagi filiallar kiradi.

“Dori-Darmon” AK va uning hududiy bo‘linmalari Sog‘liqni Saqlash vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmatining davolash muassasalari va Respublikaning boshqa davolash-profilaktika muassasalariga dori vositalarining asosiy yetkazib beruvchichi hisoblanadi.

Olis tumanlarda “ko’char dorixonalar” – ko’char dorixona filiallar uchun zarur uskunalar bilan jihozlangan, izotermik kuzovli, maxsus avtomashinalar faoliyat ko’rsatishadi, ularning asosiy vazifasi – O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyatlarida qishloq aholisini dori vositalari bilan ta’minlash hisoblanadi.

Toshkent shahri aholisiga, shu jumladan bemorlarning imtiyozli toifalariga xizmat ko’rsatishni darajasini yaxshilash maqsadida, “Dori-Darmon” AK tarmog‘ining “1002” ma’lumotnoma liniyasi tashkil etilgan, u “Dori-Darmon” AK tarmog‘ida dori vositalari va tibbiy maqsadli buyumlar mavjudligi to‘g‘risida batafsil ma’lumot beradi.

“Dori-Darmon” AK faoliyati ko‘p tomonlama. “Dori-Darmon Garant” ShK o‘z bojxona omborxonasida farmatsevtika mahsulotlarini bojxonda rasmiylashtirish va saqlash bo‘yicha xizmatlar ko’rsatadi. “Dori-Darmon Invest” MChJ O‘zbekiston farmatsevtika bozorida marketing tadqiqotlari, dori vositalari va tibbiy maqsadli buyumlarni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni ko’rsatadi.

«Dori-Darmon» aktsiyadorlik kompaniyasi barcha mahalliy farmatsevtika ishlab chiqaruvchi-korxonalar bilan hamkorlik qiladi, shuningdek, 100 dan ortiq yetakchi xorijiy ishlab chiqaruvchilar uning hamkorlari hisoblanadi.

“M-apteka” markazlashtirilgan tezkor hisob tizimi mavjudligi kompaniya menejerlariga zarur ma’lumotni olish imkoniyatini beradi, molni qabul qilish, saqlash va sotish jarayonini yaxshilaydi, mahsulotni yetkazib berish, qabul qilish va sotish bilan bog’liq omborxona va bo’limlarning faoliyatini haqiqiy vaqt rejimida muvofiqlashtiradi.

O’zbekiston farmatsevtika bozorida “Dori-Darmon” AK yetakchiligi nafaqat yaxshi tashkillashtirilgan logistikali, rivojlangan distrib’yutor tarmog’i mavjudligiga, balki, eng avvalo, menejment va xodimlarga – o’z ishiga vafodor ko’plab farmatsevtlar sulolalari mavjudligiga asoslangan. Provizor va farmatsevtlarning aksariyati oliy va 1-toifaga ega; kompaniyada xodimlar malakasini oshirishga qaratilgan ish doimo olib borilmoqda.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ko’maklashish va import o’rnini bosish bo’yicha hukumat dasturi bajarilishini ta’minlash maqsadida, “Dori-Darmon” AK Xalqaro sanoat yarmarka va Kooperatsiya birjasi ishida doimiy asosda ishtirok etmoqda.

Ko’p yillar davomida kompaniya O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligining davolash-profilaktika muassasalariga dori vositalarning ijtimoiy ahamiyatga ega guruhlarini yetkazib berish bo’yicha tender shartnomalarining bajaruvchisi hisoblanadi.

Har yili “Dori-Darmon” AK respublikadagi ijtimoiy muassasalari, hamda qimmatbaho dori vositalariga muhtoj bemorlarga homiylik yordamini ko’rsatib kelmoqda.

Bozorda barqaror faoliyat, doimo farmatsevtika mahsulotlarining keng assortimenti mavjudligi, hamkorlik aloqalarni kengaytirish imkoniyatlari, bozorda zamonaviy dori vositalarni ilgani surish va boshqa yutuqlar, “Dori-Darmon” Aktsiyadorlik kompaniyasiga, ko’p yillar kasbiy faoliyati davomida O’zbekiston farmatsevtika bozorida yetakchi o’rinni egallashga imkoniyat yaratdi.

Tarmoqlararo hamkorlik rivojlanmoqda

“O’zekspomarkaz”da O’zbekiston sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi davom etmoqda, deya xabar beradi mahalliy axborot agentliklari.

O’zbekiston sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida 15 noyabr kuni O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash

hamda Xalq ta'limi vazirliklari, "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi, "O'zkimyosanoat", "O'zbekenergo" davlat aksionerlik kompaniyalari, "O'zfarm sanoat" davlat aksionerlik konserni tizimidagi korxonalar mahsulotlarining taqdimoti bo'ldi.

Prezidentimizning 2007 yil 12 noyabrda e'lon qilingan "Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mamlakatimiz sanoat korxonalari o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini izchil rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda.

Mamlakatimizda barcha sohalarda, jumladan, tibbiyot tizimida olib borilayotgan islohotlar aholini tibbiy-ijtimoiy himoyalash, tibbiy xizmat sifatini yanada yuksaltirish, onalik va bolalikni muhofaza etishga xizmat qilmoqda. Yurtimizda tibbiy xizmatni aholiga yanada yaqinlashtirish maqsadida birlamchi tibbiyot muassasalari – qishloq vrachlik punktlari va oilaviy shifoxonalar tizimi joriy etilgani bunga yorqin misoldir.

Prezident Islom Karimovning 2006 yil 14 iyulda qabul qilingan "Mahalliy dori-darmon va tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohada olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilayotir. Xususan, dori-darmon ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash va farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirishda "O'zfarm sanoat" davlat aksionerlik konsernining alohida o'рни bor.

Shojalil Shorahmedov, "O'zfarm sanoat" davlat aksionerlik konserni boshqaruvi raisining maslahatchisi:

– Yigirmadan ziyod korxona va tashkilotni birlashtirgan kompaniyamiz tizimida faoliyat olib borayotgan korxonalar eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan. Ular zamon talablariga mos ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va mahsulot sifatini yanada yaxshilash imkonini bermoqda. O'zbekiston farmatsevtika sanoati korxonalari uchun mazkur kooperatsion birjaning ahamiyati katta. Bu yerda tarmoq ichidagi va tarmoqlararo kompaniya, firma va korxonalar bir-birlarining ishlab

chiqarayotgan mahsulotlari bilan yaqindan tanishish va savdo shartnomalari imzolash imkoniga ega bo'lmoqda. Kooperatsiya birjasida kompaniyamiz tarkibiga kiruvchi "Farm Glass" qo'shma korxonasi "O'zkimyosanoat" davlat aksionerlik kompaniyasi bilan 6,5 milliard so'mlik shartnoma imzoladi. Birjaning yana bir ijobiy jihati shundaki, u tarmoqlararo kooperatsiyadan tashqari tarmoq ichidagi hamkorlik rivojiga ham yanada keng yo'l ochayotir. Qiymati besh milliard so'mdan ziyod tayyor mahsulotlarimiz uchun shartnoma imzolashga muvaffaq bo'ldik. Eksportimiz ham izchil o'sib, so'nggi o'n oy davomida 12 million AQSH dollarini tashkil qildi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va hayotga izchil tatbiq etilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga puxta bilim berish barobarida mamlakatimizning barcha jabhalari uchun malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan. Mamlakatimizda mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar uzluksizligi, bosqichma-bosqichligi, tizimdagi bo'g'inlarning o'zaro uyg'unligi bilan birga ta'lim, fan va ishlab chiqarish jarayonining bir-biriga chambarchas bog'liqligi, o'zaro integratsiyalashuvi ta'minlangani bilan ham ahamiyatlidir. Bu jarayon milliy iqtisodiyotimizning yuksalishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi oliy ta'lim dargohlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar barcha tarmoqlarda, jumladan, konchilik, energetika, neft va gaz, kimyo sanoatida keng qo'llanilayotir.

"O'zkimyosanoat" davlat aksionerlik kompaniyasi tizimida mamlakatimiz kimyo sanoati qudratini oshirish, ichki va tashqi bozorning sifatli kimyoviy mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish yo'lida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston dunyo mamlakatlari orasida tabiiy gaz qazib olish bo'yicha oldingi o'rinlardan birida turadi. "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi tizimida yiliga 64 milliard kub metrdan ortiq tabiiy gaz, 8,6 million tonnaga yaqin suyuq uglevodorod qazib olinmoqda. Bu 1991 yildagiga qaraganda 54 foiz ko'pdir. Neft-gaz tarmog'ining yangi inshootlarini barpo etish, mavjudlarini zamon talablari asosida rekonstruksiya hamda modernizatsiya qilish ishlari jadal davom etmoqda.

Ravshan Ortiqov, “O‘zbekenergo” davlat aksionerlik kompaniyasi boshqarmasi boshlig‘i:

– Kompaniyamizda ikki yo‘nalishda ish olib borilmoqda. Birinchisi – eng zarur mahsulotlarni mahalliyashtirish, ikkinchisi – tarmoqlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Shu maqsadda “Andijonmash” aksionerlik jamiyati, “O‘zmetkombinat” aksionerlik ishlab chiqarish birlashmasi kabi korxonalar bilan hamkorlikda ish yuritmoqdamiz. Bugungi kunda korxonalar, tashkilotlar, aholi turarjoylari zamonaviy elektr hisoblash uskunalari bilan to‘la jihozlanayapti. Bunday yangi qurilmalar elektr energiyasi sarfini aniq hisoblash tizimini yanada takomillashtirish va energetika resurslarini tejash imkonini beradi. Sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi davomida hamkorlarimiz bilan jami o‘ttiz milliard so‘mlik shartnomalar imzolashni mo‘ljallamoqdamiz.

O‘zbekiston sanoatchilari forumi boshlanganidan buyon umumiy qiymati 430,5 milliard so‘mlik 607 shartnoma imzolandi.